



№ 13

«20» yanvar 2025 y.

**“Hududgazta'minot” AJ huzuridagi jamoatchilik kengashining  
yangi tarkibini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O'zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlar ijrosini ta'minlashda, jamoatchilik boshqaruvini yanada takomillashtirish hamda tizimda amalga oshirilayotgan islohotlarning jamoatchilik fikri asosida baholash amaliyotini yo'lga qo'yish maqsadida,

**BUYURAMAN:**

1. Jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish uchun tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan aholi tomonidan ko'tarilayotgan eng dolzarb muammolarni aniqlash va hal etish, jarayonlarni raqamlashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar hamda ularning natijadorligi to'g'risida Jamoatchilik kengashining hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Hududgazta'minot” AJ huzuridagi jamoatchilik kengashining yangi tarkibi **1-ilovaga**, hududiy jamoatchilik kengashlari raislari ro'yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin hamda shu munosabat bilan Jamiyatning 2024 yil 6 yanvardagi 5-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Jamoatchilik **kengash raisi** (Axmedov):

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 16 iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-6247-son hamda 2022 yil 14 iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-154-son Farmonlariga muvofiq:

- jamoatchilik kengashlari tarkibi tasdiqlangan kundan boshlab **besh kun muddatda**, kengashi tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar va unga kiritilgan o'zgartishlar jamiyatning rasmiy veb- saytida e'lon qilinsin;

- **har chorak yakuni bilan** jamoatchilik kengashi faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar, Jamiyatning rasmiy veb-saytida yoritib borilishi ta'minlansin.

Shuningdek, iste'molchilar fikrini doimiy ravishda o'rganib borish maqsadida,

axborot texnologiyalaridan samarali foydalangan holda ijtimoiy so'rovlar o'tkazish masalasiga alohida e'tibor qaratilsin.

5. **Hududiy gaz ta'minoti filiallari direktorlari** hududiy jamoat kengashlari faoliyatlarini samarali tashkil etishda, shuningdek, filiallar zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga dahl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish jarayonlarida kengash a'zolariga barcha shart-sharoitlar yaratish uchun **mas'ul etib belgilansin.**

6. Jamiyat va uning hududiy tuzimalari jamoatchilik kengashlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligini tahlil qilish, tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish, talab etilgan hujjatlarni rasmiylashtirish, kengashning ochiqlikni ta'minlash, kengash faoliyati to'g'risida ommaviy axborot vositalarida hamda ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borilishi kengash kotibiga yuklatilsin hamda har oyda lavozim okladining 30 foizi miqdorida qo'shimcha xaq to'lansin.

7. Devonxona (Botirjonova) mazkur buyruqni Jamiyatning tegishli boshqarma va bo'limlariga hamda Jamiyat tasarrufidagi barcha hududiy gaz ta'minoti filiallariga yetkazilishini ta'minlasin.

8. Mazkur buyruq ijrosining nazorati Jamoatchilik kengashi raisi Sh.Axmedov zimmasiga yuklatilsin.

**Boshqaruv raisi**

**ASLIGATO'G'RI**

**M. Xodjayev**

“Hududgazta’minot” AJning  
2025 yil 20 yanvardagi  
13 - son buyrug‘iga  
1-ilova

**“Hududgazta’minot” AJ huzuridagi jamoatchilik kengashi  
TARKIBI**

1. **AXMEDOV**  
Shonazar Juraboyevich - Birlashgan kasaba uyushma qo‘mitasi raisi,  
*Kengash raisi*
2. **KAMILOV**  
Abdulla Abduazimovich - “Hududgazta’minot” AJ mehnat faxriysi,  
*Kengash raisining o‘rinbosari*
3. **JUMANIYOZOVA**  
Dilorom Raxmonovna - Matbuot kotibi - Boshqaruv raisining axborot  
siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi
4. **XAMIDULIN**  
Mixail Borisovich - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi  
Davlat boshqaruvi akademisi “Menejment  
nazariyasi va amaliyoti” kafedrası professori,  
iqtisod fanlari doktori (*kelishuv asosida*)
5. **URAZOV**  
Abubakir Kulturayevich - “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda vostoka”  
gazetalari tahririyati davlat korxonasi bosh  
muharriri o‘rinbosari (*kelishuv asosida*)
6. **XAYRULLAYEVA**  
Nargiza Xayrullayevna - “O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi”  
“O‘zbekiston 24” radiosi muxbiri
7. **ISMOILOV**  
Alisher Musoyevich - Murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi yetakchi  
mutaxassisi, *Kengash kotibi*

“Hududgazta’minot” AJning  
2025 yil 20 yanvardagi  
13 - son buyrug‘iga  
2-ilova

**Hududiy jamoatchilik kengashi raislari  
RO’YXATI**

1. **ABDIYEV**  
O’ktam Sulaymonovich - “Hududgaz Buxoro” gaz ta’minoti filiali direktor maslahatchisi
2. **MAMANAZAROV**  
Otajon Teshayevich - “Hududgaz Qashqadaryo” gaz ta’minoti filiali matbuot kotibi
3. **BEKCHANOV**  
Baxodir Atajonovich - “Hududgaz Xorazm” gaz ta’minoti filiali Mehnat muhofazasi, sanoat xavfsizligi, favqulotda holatlarni oldini olish va ishlab chiqarish nazorati bo‘limi yetakchi muhandisi
4. **AXMEDOV**  
Turg’unboy Mamajonovich - “Hududgaz Farg‘ona” gaz taminoti filiali boshlang‘ich kasaba uyushma qo‘mitasi raisi
5. **DEDAMIRZAEVA**  
Maryamxon Valixonovna - “Hududgaz Namangan” gaz ta’minoti filiali Nazorat va murojaatlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i
6. **QO’ZIYEV**  
Ravshan Raimovich - “Hududgaz Navoiy” gaz ta’minoti filiali Boshlang‘ich kasaba uyushma qo‘mitasi raisi
7. **SOATOV**  
Mirsidiq Sobirovich - “Hududgaz Poytaxt” gaz ta’minoti filiali Yer osti gaz quvurlarini elektrokimyoviy himoyalash xizmati montyori
8. **JALILOV**  
Lutfullo Ubaydullayevich - “Hududgaz Andijon” gaz ta’minoti xo‘jalik bo‘limi mudiri
9. **AZIZOV**  
Safarali Nurboyevich - “Hududgaz Samarqand” gaz ta’minoti filiali Boshlang‘ich kasaba uyushma qo‘mitasi raisi
10. **HASANOV**  
Qo‘ldosh G‘aniyevich - “Hududgaz Jizzax” gaz ta’minoti filiali Boshlang‘ich kasaba uyushma qo‘mitasi raisi
11. **IKROMOV**  
Baxodir Qilichevich - “Hududgaz Surxondaryo” gaz ta’minoti filiali Yuridik shaxslarga tabiiy gazni yetkazib berishni nazorat qilishbo‘limi bo‘lim boshlig‘i
12. **XODJIQULOV**  
Alisher Xudoyqulovich - “Hududgaz Sirdaryo” gaz ta’minoti filiali faxriy xodimi
13. **YULDASHEV**  
Akmal Abdullayevich - “Hududgaz Toshkent” gaz ta’minoti filiali Mehnat muhofazasi, sanoat xavfsizligi, favqulodda holatlarni oldini olish va ishlab chiqarish nazorati bo‘limi boshlig‘i
14. **BEKIMBETOV**  
Sarsenbay Baubekovich - “Hududgaz Qoraqalpog‘iston” gaz ta’minoti filiali direktor o‘rinbosari